

Social Deixis Composition In English And Uzbekistan

Rajabboqiyeva Barno Obidjon qizi

Master's student, Turan University

email: rajabboqiyevab@gmail.com

Scientific advisor: Assoc. Prof. M. Khamrayeva

Abstract

This article analyzes the cognitive-semantic features of social deixis in English and Uzbek. Social deixis plays a key role in expressing social relations, respect, and intimacy through linguistic means in communication. The study provides a comparative analysis of forms of address, titles, honorifics, and markers of politeness in English and Uzbek, highlighting how they reflect social status and conversational context. From the perspective of cognitive semantics, the research explores the conceptual domains, meanings, and cultural factors shaping these linguistic units.

Keywords: social deixis, cognitive semantics, forms of address, social status, politeness, communication culture.

Anotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy deysisning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy deysis til vositalarining nutq jarayonida ijtimoiy munosabatlarni, hurmat va yaqinlik darajasini ifodalashdagi rolini belgilaydi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida murojaat shakllari, unvonlar, hurmat-kamtarlik ifodalovchi birliklar, shuningdek, ijtimoiy maqom va muloqot kontekstiga bog'liq farqlar solishtirma tahlil qilinadi. Kognitiv semantika asosida ushbu birliklarning mazmuni, konseptual maydoni va madaniy omillarga tayanishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy deysis, kognitiv semantika, murojaat shakllari, ijtimoiy maqom, hurmat, muloqot madaniyati

KIRISH. Tilshunoslikda deysis tushunchasining besh xil turi mavjud bo'lib unga quyidagilar kiradi. 1) vaqt deysisi; 2) shaxs deysisi; 3) o'rin joy deysisi; 4) ijtimoiy deysis 5) diskursiv deysis. Til nutq hodisasida ijtimoiy deysis so'zlovchi, tinglovchi va boshqa ishtirokchilarning ijtimoiy munosabatlari va xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu esa tilning ijtimoiy mavqe, tanishuv hamda ijtimoiy rollarni qanday yo'l bilan ko'rsatishini ifodalaydi. Bunga murojat shakllari masalan, "janob Prezident", "do'stim", sharaflil so'zlar va ijtimoiy farqlarni bildiruvchi boshqa lingvistik xususiyatlar kiradi [en.wikipedia.org].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ijtimoiy deysis, tilning ijtimoiy munosabatlarini qanday aks ettirish va shakllantirish uslubini o'rgansa, pragmatika sohasidagi uni ko'plab olimlar qiyoslashgan. Jumladan, Levinson ijtimoiy deysis nazaryasini o'rganish bilan birga shaxs, joy va vaqt bilan birga deysisning besh turi sifatida belgilab bergan. CH. Fillmore shuningdek, ijtimoiy deysisni farqlanishi uning ijtimoiy vaziyatlarni aks ettirishdagi rolini tushuntirdi. Bundan tashqari, J Lyons o'zining semantika bo'yicha tadqiqotida deysisning an'anaviy toifalarini ijtimoiy deysisni kategoriyasi orqali kengaytirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ijtimoiy deysis va nutq faoliyatining ijtimoiy holati o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi va ular bilan belgilanadi degan fikrni Fillmore ilgari suradi [CH.Fillmore 1975; 88].

U deysis haqidagi tushunchani shaxs, joy va vaqt kabi kabi an'anaviy kategoriyalardan tashqari kengaytirib, uning lingvistik tahlildagi ahamiyatini

ta'kidlab, ijtimoiy deysisni qamrab oldi [J.Lyons 1995;18]

Bundan tashqari dunyoning bir qator olimlari o'z hissalarni qo'shgan

Masalan, D.Archer, J. K. Aijmer va S.Wichmann (2012) relational ijtimoiy deysisga, xususan, qarindoshlik atamalariga va ularning nutq hodisasi doirasidagi ijtimoiy munosabatlarga aloqasiga e'tibor qaratdi. J.Huang (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mutlaq ijtimoiy

deyxisni, shu jumladan ijtimoiy mavqeni ifodalash uchun ishlatiladigan sharaflarni o'rganib chiqdi. Researchgate tomonidan olib borilgan tadqiqot ijtimoiy deyxis va ijtimoiy sinf o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqdi, ijtimoiy deyxis kabi lingvistik xususiyatlar so'zlovchining ijtimoiy mavqeni qanday ochib berish mumkinligini o'rgandi.

Ijtimoiy deyxis bu suhbat ishtirokchilarining o'ziga xosligi yoki munosabatlari haqidagi ma'lumotni grammatiklashtirgan ba'zi tillarning olmosh tizimlarining hodisasi [S. Seid 2009;197].

J.Holmesga ko'ra ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhitga, o'zaro ta'sirning funksiyalariga va ular o'rtasidagi muhokama qilinadigan mavzuga bog'liq [J. Holmes 2013;8].

Demak til so'zlovchilarning ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra o'zgarib turadi, tildan foydalanish suhbatda ishtirok etuvchi ishtirokchilar o'rtasidagi va ularning maqomi bilan belgilanadi, maqomi yoshi, ijtimoiy toifasi va mashg'ulotlari turlicha bo'lganligi sababli teng bo'lmagan mavqega ega bo'lgan shaxslar o'rtasidagi nutq, ehtimol, tengdoshlar o'rtasidagi qaraganda rasmiyroqdir. Ijtimoiy deyxis va asosiy shakllari shaxs olmoshlari, otlari, taxalluslar, qarindoshlik iboralari, mehribonlik shartlari sharaf shakllari ekanligini eslatib o'tadi. Ijtimoiy deyxis sosan adresatni ko'rsatish uchun hurmat ko'rsatadigan lug'aviy shakldir, masalan, so'zlovchi hurmat ko'rsatganda (Janob Amir) yoki pastga urib gapirganda (qulingiz) [Holmes 2013, p.8]

Aminjonga javob berildi. Bu novcha, qirraborun yosh esa-da ,ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirgan yigit bizni Buxoroga chin dildan taklif etdi. Adresini qoldirdi. Nosirjon bilan xo'shlashar ekan, unga negadir o'ychan boqib:

- Siz havas qilsa arziydigan yigitsiz. Biz... bo'lgancha bo'lganmiz, uka, ---dedi.(Shukur Xolmirzayev. O'n sakkizga kirmagan kim bor. 184)

Matndan ijtimoiy deyxis birliklari bor va ularni kognitiv semantik tahlil qilamiz.

yigitsiz → “Siz” formasining qo'llanishi hurmatni ifodalaydi, Nosirjon Aminjonga nisbatan hurmat bilan murojaat qilmoqda “uka” → Bu so'z ijtimoiy yaqinlikni, birodarlikni bildiruvchi murojaatdir va shu bilan birga, biroz pastroq maqomni yoki kichikroq yoshni ham anglatadi. “Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → “Biz” orqali Nosirjon o'zini va o'z tengdoshlarini umumlashtirib, tajribasi ortda qolgan avlod sifatida ko'rsatmoqda.

Kognitiv semantika til birliklarining inson tajribasi va dunyoqarashidagi konseptual xaritaga bog'lanishini o'rganadi. Ushbu parcha quyidagicha tahlil qilamiz: “Siz” → nutq egasi o'zini kamtarona, suhbatdoshini esa yuqori maqomda tasavvur qiladi. Bu kognitiv modelda “hurmat”ni ko'rsatadi. “uka” → garchi “Siz” ishlatilgan bo'lsa-da, “uka” so'zi samimiylilik, yaqinlik va birodarlik kognitiv modelini yuzaga chiqaradi. Demak, bu yerda hurmat + samimiylilik aralashgan.

“Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → bu jumla orqali Nosirjon o'z avlodini tajriba orttirgan, lekin endi yosh emas, deb angelaydi. Bu kognitiv semantikada “*avlodlar kontrast*” konseptini ifodalaydi: yoshlar – kelajak, biz – o'tgan avlod. Mazkur parchaning ijtimoiy deyxisi Nosirjon va Aminjon o'rtasidagi avlodlararo tafovut, hurmat va samimiylilikning uyg'unlashuvini ifodalaydi. “Siz” → hurmatli murojaat, “uka” → yaqinlik, birodarlik, “ Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → tajriba va avlodlar o'rtasidagi chegarani anglash. Shunday qilib, kognitiv semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, bu matnda ijtimoiy deyxis orqali insonlar orasidagi ierarxiya, avlodlar farqi va hurmat-samimiylilik konsepti tasvirlangan.

What was the name? The signature was rather difficult to read. Emily Brent thought impatiently: “So many people write their signatures quite illegibly.” She let her mind run back over the people at Belhaven. She had been there two summers running. There had been that nice middle aged woman—Miss—Miss—now what was her name?— her father had been a Canon. And there had been a Mrs Olton—Ormen—No, surely it was Oliver! Yes—Oliver (Agatha Christie, And Then There Were None P58)

Badiiy matndagi ijtimoiy deyxis birliklarni kognitiv semantik tahlil qilamiz

“Miss” – ijtimoiy maqomni bildiruvchi murojaat shakli, odatda turmush qurmagan ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda ism esdan chiqqan, lekin ijtimoiy maqom belgisi xotirada qolgan. “Mrs.” – turmush qurgan ayollarga nisbatan ishlatiluvchi hurmat shakli. Bu ham ismni aniq eslay olmagan joyda ijtimoiy maqomni eslab qolish hodisasini ko’rsatadi va “*her father had been a Canon*” – bu ijtimoiy maqomning yana bir ko’rsatkichi: ayolning shaxsi otasining diniy darajasi (Canon – cherkovda yuqori martaba) orqali aniqlanmoqda. “Miss” va “Mrs.” kabi ijtimoiy deysislar ingliz jamiyatida gender + oilaviy maqomni birlamchi identifikatsiya belgisi sifatida tushuniladi. “Canon” kabi martaba esa ijtimoiy tabaqalanish, ya’ni shaxsni u kimning farzandi ekanligi orqali tanish konseptini bildiradi. Bu parcha ijtimoiy deysisning quyidagi kognitiv-semantik funksiyalarini ochib beradi: Shaxsni ism emas, balki ijtimoiy rol orqali tanish – Emily ismni eslolmaydi, lekin “Miss”, “Mrs.” va “*Canonning qizi*” kabi maqomlar orqali uni tasavvurida qayta tiklaydi. Ingliz jamiyatining ijtimoiy kategoriyalariga asoslangan kognitiv xarita – turmush qurgan/qurmaganlik, otaning martabasi kabi belgilar ijtimoiy tasniflashda markaziy o’rin egallaydi. Xotiraning ijtimoiy indeksatsiyasi – ijtimoiy deysis shaxslarni eslash va farqlashda “kognitiv indeks” vazifasini bajaradi

Sanihaxonim Ismoil yegan tayoqlar jannatdan chiqqan deydi. Orasira shunday deyishdan Ismoilni urib zavqlangani kabi zavq oladi. Jannatdan chiqqan narsa faqat tayoqmi? Yoxud tayoqning jahannamdan chiqqan turi yo’qmi? Modomiki, jannatdan chiqqan ekan, nechun Salma bilan birga totmaydi bu tayoqni?! Ismoil kichik boshi bilan ularni tushunganday bo’lar, yig’lar, faqat tuzukroq, to’g’riroq javob topolmasdi. Topgandan ne foyda? Tayoq jannatdan chiqqanmi yoki do’zaxdanmi, baribir Ismoilning joniga azob beraveradiku, Ismoil shunday xayollar bilan band bir paytda yuqorida ikki ayol o’rtasida shunday suhbat kechardi (Ahmad Lutfiy, O’gay Ona 88bet) Sanihaxonim” – bu yerda xonim qo’shimchasi ijtimoiy maqom, hurmat yoki kattalikni bildiruvchi ijtimoiy deysis markeridir. Shuningdek, bu so’z jamiyatdagi patriarxal-ijtimoiy tizimda ayolning obro’-e’tiborini ko’rsatadi.

Parchadagi ijtimoiy deysisni kognitiv semantik tahlil qilamiz

“*Ismoil*” – ism yalang’och shaklda keltirilmoqda, bu odatda kichiklar yoki ijtimoiy jihatdan pastroq mavqedagilarga murojaat qilish shaklidir. Hurmat belgisi yo’qligi ierarxik tafovutni ifodalaydi. “*Salma*” – yana ismning yalang’och qo’llanishi. Bu ayol Sanihaxonimdan ijtimoiy jihatdan pastroq maqomda yoki unga yaqin munosabatda tasvirlanadi. “*Salma*” – yana ismning yalang’och qo’llanishi. Bu ayol Sanihaxonimdan ijtimoiy jihatdan pastroq maqomda yoki unga yaqin munosabatda tasvirlanadi. “*Sanihaxonim*” yuqori maqomda, hokim shaxs sifatida namoyon bo’ladi. “*Ismoil*” – bo’ysunuvchi bola. Demak, ijtimoiy deysis orqali “*ustoz–shogird*”, “*kattalar–bolalar*” modeli yaratilgan. Diniy asosli konseptualizatsiya: “*Jannatdan chiqqan tayoq*” iborasi kattalar tomonidan bolaga nisbatan qilinayotgan zo’ravonlikni muqaddaslik pardasi bilan oqlash uchun ishlatilmoqda. Kognitiv jihatdan bu “azob = savob” metaforasiga asoslanadi. Bolaning kognitiv to’qnashuvi: Ismoil kichik aqli bilan “*jannatdagi narsa nega azob beradi?*”, “*nega boshqalar (Salma) bilan baravar bo’lishmaydi?*” kabi savollarga duch keladi. Bu kognitiv dissonans – ya’ni dunyo haqidagi tasavvurlar va real tajriba o’rtasidagi ziddiyatdir. Kognitiv jihatdan bu “azob = savob” metaforasiga asoslanadi. Bolaning kognitiv to’qnashuvi: Ismoil kichik aqli bilan “*jannatdagi narsa nega azob beradi?*”, “*nega boshqalar (Salma) bilan baravar bo’lishmaydi?*” kabi savollarga duch keladi. Bu kognitiv dissonans – ya’ni dunyo haqidagi tasavvurlar va real tajriba o’rtasidagi ziddiyatdir. Avlodlararo tafovut bor. Kattalar diniy-metaforik asosli tafakkur bilan ish yuritsa, bola real tajriba orqali uni noto’g’ri, adolatsiz deb his qiladi.

Dr. Armstrong drew a deep breath. “And Mrs. Rogers?” Lombard said slowly: “I could believe in Anthony’s suicide (with difficulty) if it weren’t for Mrs. Rogers. I could believe in Mrs. Rogers’ suicide (easily) if it weren’t for Anthony Marston. I can believe that Rogers put his wife out of the way—if it were not for the unexpected death of Anthony Marston (Agatha Christie And Then There Were Non P 70)–

Dr. Armstrong “Dr.” unvoni ijtimoiy maqomni anglatadi u ilmiy-doktorlik darajasiga ega shaxs sifatida ko’rsatiladi. Bu uni boshqa ishtirokchilardan bilimlroq va ishonchliroq qilib ko’rsatadi. *Mrs. Rogers* – “Mrs.” ijtimoiy-status ko’rsatkichi va u turmushga chiqqan ayol sifatida, eriga (Rogers) ijtimoiy jihatdan bog’langan

Anthony Marston / Lombard / Rogers – oddiy familiya yoki ism bilan atash ijtimoiy tenglikni yoki erkaklar o’rtasida rasmiy bo’lmagan muomala darajasini ko’rsatadi.

unvonlar orqali o’quvchi ongida “hierarxik xarita” hosil bo’ladi: shifokor → bilimdon, hokimiyatga ega; xizmatkor (Rogers) va uning xotini → pastroq ijtimoiy qatlam; Marston va Lombard → yuqori tabaqadagi, erkinroq erkaklar. Bu ijtimoiy darajalar voqea mantiqini idrok etishda yashirin ta’sir qiladi. Egalik va qarindoshlik ko’rsatkichlari bu yerda his wife (uning xotini) → Rogersning xotiniga egalik qilishi, ularning ijtimoiy va oilaviy munosabatini ifodalaydi. *put his wife out of the way* – bunday ifoda ijtimoiy va jinsiy rollarni ham ochadi: ayol “qaram”, erkak esa “hokimiyat egasi” sifatida kognitiv modelda gavdalanadi. Kognitiv jihat: ijtimoiy deysis orqali “erkak–ayol”, “er–xotin” munosabatlari mantiqiy asosda quriladi. O’quvchi Rogersni potensial “faol agent”, xotinini esa “passiv qurbon” sifatida ko’radi. Baholovchi modal konstruksiyalar. “I could believe...” / “I can believe...” – Lombardning nutqi subyektiv bahoga asoslangan. Bu baholar ijtimoiy deysisning nutq egasining mavqei bilan bog’liq: u o’zini hodisalarni “tahlil qiluvchi” yoki “hakam” sifatida ko’rsatmoqda. Kognitiv jihatdan o’quvchi Lombardni “ratsional kuzatuvchi”, boshqalarning esa “sudlanuvchi” yoki “gumondor” sifatida idrok etadi.

Kognitiv jihatdan o’quvchi Lombardni “ratsional kuzatuvchi”, boshqalarning esa “sudlanuvchi” yoki “gumondor” sifatida idrok etadi.

Ijtimoiy deysisning umumiy semantik xulosasi quyida ta’riflangan. Parchadagi ijtimoiy deysis unvonlar (Dr., Mrs.), oilaviy munosabatlar (his wife) va nutqdagi subyektiv baho orqali ifodalangan. Kognitiv darajada bu elementlar o’quvchi ongida quyidagi semantik tuzilmani yaratadi:

Doktor (ilmiy-avtoritet) → ishonchli, obro’li shaxs ekanini anglatiyapti. *Mrs. Rogers* (ayol, xizmatkor) → zaif, oson qurbon bo’lishi mumkin hamda *Rogers* (er, xizmatkor) → faol harakat qilishi mumkin gumondor. *Lombard* (erkak kuzatuvchi) → mulohaza yurituvchi, voqeani baholovchidir, *Anthony Marston* esa (badavlat, yosh erkak) → ijtimoiy jihatdan erkin, lekin sirli o’limi voqeani murakkablashtiradi.

Bu parcha ijtimoiy deysis orqali shaxslarning ijtimoiy maqomi va rollarini ochib beradi. Kognitiv semantika nuqtai nazaridan, o’quvchi voqeani oddiy “kim o’ldi” darajasida emas, balki kim ijtimoiy jihatdan kuchli, kim zaif, kim gumondor degan konseptual xarita asosida idrok qiladi. Bu esa Christie uslubiga xos tarzda sir va shubhani yanada kuchaytiradi.

XULOSA. Ijtimoiy deysis til tizimida shaxslarning ijtimoiy maqomi, o’zaro munosabatlari va nutq jarayonidagi rollarini ko’rsatishda muhim vosita sifatida namoyon bo’ladi. Unvonlar, murojaat shakllari, qarindoshlik atamaları va egalik ko’rsatkichlari orqali ijtimoiy munosabatlar nafaqat lingvistik darajada, balki kognitiv-semantik darajada ham aks etadi. Kognitiv yondashuv shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy deysis o’quvchi yoki tinglovchi ongida shaxslar o’rtasidagi hierarxiya, kuch-ta’sir munosabatlari hamda subyektiv baholash modellarini shakllantiradi.

Natijada, ijtimoiy deysisni tahlil qilish tilning nafaqat kommunikativ, balki konseptual funksiyasini ham ochib beradi. U ijtimoiy rollarning nutqiy ifodalanishini ko’rsatish bilan birga, inson tafakkurida jamiyat haqidagi kognitiv sxemalarni mustahkamlaydi. Shu bois ijtimoiy deysisning kognitiv-semantik tahlili tilshunoslikda shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarni o’rganishda samarali nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

CH.Fillmore.Lectures on deixis- CSLI 1971.-P 255

Lyons J. Linguistic Semantics. - Cambridge University Press.1995. – P 376.



- Holmes, J. (2013). An Introduction to Sociolinguistics. London & New York 2013. Routledge 4th edition –P 238.
- S.Seid. 2009. Some Aspects of the Lexical Phonology and Morphology of Tigrigna. 2009 Oxford University Press—P133
- www.enwikipedia.org.